



RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA MASOFAVIY BANK XIZMAT TURLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

Rustamov Eldor Baratovich

Mirzo Ulug'bek nomidagi

O'zbekiston milliy universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Jahonda raqamli iqtisodiyot rivoji davrida bank xizmat turlarini zamonaviy texnologiyalarni qo'llash orqali ko'rsatishni tadqiq qilish kabi masalalarga e'tibor kuchayib bormoqda. Bu sohada bank xizmat turlarini samarali boshqarishning zamonaviy integrallashgan axborot tizimlarini joriy etish, tizim ma'lumotlarining shaffofligi va himoyalanihini ta'minlash, raqamli iqtisodiyot texnologiyalarini qo'llash hamda axborot tizimlarining o'zaro axborot integrasiyasini samarali ravishda amalga oshirish metodikasini takomillashtirish masalalari asosiy tendensiyalardan hisoblanadi. Raqamli iqtisodiyot va innovasiyalarning keng rivojlanishi tijorat banklari tomonidan xizmat turlarini axborot tizimlarini takomillashtirib borishni taqozo etmoqda.

Oxirgi yillarda zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini rivojlantirish, tijorat banklari xizmat turlarining yangi mexanizmlarini joriy etish yuzasidan katta ishlar olib borilmoqda. Xususan, Prezidentning "Axborot texnologiyalari va kommunikasiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (Farmon, 2018), "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (Qaror, 2018), "2020 yil – Ilm-ma'rifat va raqamli iqtisodiyot yili" deb e'lon qilinganligi hamda 2030 yilga qadar "Raqamli O'zbekiston" konsepsiyasini ishlab chiqish belgilanganligi (Mirziyoev, 2019) bu borada bank tizimi oldiga qator vazifalarni bajarishni keltirib chiqaradi. Yuqoridagi konseptual g'oyalardan kelib chiqqan holda, mazkur maqola mavzusining dolzarb ekanligini asoslash mumkin.



Bank sohasi bu iqtisodiyotning yangi texnologiyalar juda keng qo'llanadigan sohasidan biri hisoblanadi. Oxirgi vaqtlarda yangi kompyuter texnologiyalari, kredit kartalari va pul-moliya bozorida muhim innovatsiyalarni joriy etish davri bo'ldi. Tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, banklar ijtimoiy tarmoqlarga, mobil internetga va hattoki, onlayn o'yinlar e'tiborini tortadigan yangi reklama kanallarini juda faollik bilan rivojlantirib bormoqda.

Bank — tijorat tashkiloti bo'lib, bank faoliyati deb hisoblanadigan quyidagi faoliyat turlari majmuini amalga oshiradigan yuridik shaxsdir: yuridik va jismoniy shaxslardan omonatlar qabul qilish hamda qabul qilingan mablag'lardan tavakkal qilib kredit berish yoki investitsiyalash uchun foydalanish; to'lovlarni amalga oshirish.

Banklar o'z faoliyatlarida quyidagi bank operatsiyalarini amalga oshiradilar: jismoniy va yuridik shaxslarning, shu jumladan vakil banklarning hisobvaraqlarini ochish va yuritish, hisobvaraqlar bo'yicha hisob-kitob qilish; omonatlarni jalb etish; kreditlarning qaytarilishi, foizlilik va muddatlilik sharti bilan o'z mablag'lari va jalb etilgan mablag'lar hisobidan o'z nomidan kreditlar berish.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 12-may kuni “2020–2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida” g'farmonga imzo chekdi. Farmon bilan tegishli strategiya va uni amalga oshirish bo'yicha yo'l xaritasi ham tasdiqlandi. Hujjat asosida kelgusidagi 5 yil davomida bank sohasini o'zgartirishning konseptual asoslari, tamoyillari va yo'nalishlari belgilab olindi. Unga ko'ra, bank sohasida o'rta muddatli islohotlarning asosiy yo'nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

- sektorni qayta qurish – banklarni o'zgartirish va xususilashtirish;
- bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi standartlarini, moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarini va boshqalarni joriy etgan holda qonunchilik bazasini takomillashtirish;



- mijozlargayoʻnaltirilgan xizmatlar, kreditlash mexanizmlari va biznes jarayonlarini avtomatlashtirish orqali xizmat koʻrsatish sifatini yaxshilash va kengaytirish;
- kadrlar malakasini oshirish.

Bank innovatsiyalari - yangi bank mahsulot va xizmatlarining yigʻindisi sifatida mijozlarga foyda olishda yordam beradigan yangiliklar kiritishni joriy qilish orqali resurslar salohiyatini shakllantirish va joylashtirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish jarayonida qoʻshimcha daromad olishga qaratilgan yangi texnologiyalar sohasida bank faoliyatining maqsadi va natijasi haqida sintetik tushunchadir.

Aksariyat global banklar raqamli yoki mobil shaklga oʻtishni qoʻllab – quvvatlamogʻda. Bugungi kunga kelib, banklar mijozlarining salmoqli qismini online dunyoga toʻlaqonli moslashgan va busiz hayotini tasavvur qilolmaydigan yosh avlod tashkil etadi. Shunisi qiziqki, dunyo aholisining 90 foizini 30 yoshgacha boʻlganlar tashkil etishini hisobga olsak, bank xizmatlarini raqamlashtirish banklar uchun hayotiy zaruratga aylanib bormogʻda.

1980-yillar oxirlariga kelib, Angliyaning National Westminster Bank telefon aloqasi asosida mijozlarga masofadan turib xizmat koʻrsatishning kashfiyoti amaliyotga joriy etilgan. 1995-yil “toʻgʻridan-toʻgʻri banking” muvaffaqiyatlari dastlabki virtual banklar paydo boʻlishiga olib keldi. Banklarning aksariyati global tarmoqda oʻz saytlariga ega, lekin ular asosan reklama va axborot berish maqsadlarida foydalaniladi. Ayrim banklar qimmatli qogʻozlar xarid qilish va sotishga talabnomalar berish imkonini beradigan dasturiy mahsulot xarid qildi, internet orqali bank hisob raqamlarini boshqarish tizimi – uy bankingini ishlab chiqdilar. Bu tizim valyutani konvertasiya qilish, kommunal xizmatlar uchun pul toʻlash, pul oʻtkazmalarini uydan turib oʻtkazishga imkon beradi.

Virtual bank xizmatlari bir onda bajariladigan va kamxarjliligi bilan anʻanaviy banklardan alohida ajralib turadi. 24/7 formatda faoliyat olib boradigan

raqamli banklar mijozlar potensialining kattagina qismini egallagan desak, aslo adashmagan bo'lamiz.

O'zbekistonda davlat ishtirokidagi banklar anchani tashkil etadi. Shuning uchun ularni raqamlashtirish mamlakat YAIM o'sishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Davlat banklarining raqamli transformatsiyasi O'zbekistonda iqtisodiy o'sishning muhim drayverlaridan biri bo'la oladi.

Xulosa qilib aytganda, tijorat banklarining transformatsiya jarayoni va raqamli bank tizimida ishlashga o'tishi bu – yangi axborot texnologiyalarini rivojlanishi hamda butun dunyo raqamlashtirish poygasiga munosib javob hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, balki ortiqcha xarajatlarni ham birdek kamaytiradi. Boshqacha qilib aytganda, raqamli moliyaviy xizmatlarni rivojlantirish mamlakat bank-moliya tizimi ravnaqining muhim yo'nalishi bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Shomurotova, S. X., Farmonova, S. B., Kamolova, N. I., & Movlonova, S. A. (2020). Improving the Methodology of Teaching the role of metals in Biochemical Processes using Pedagogical Texnologies. *Engineering a Management Test*, 83, 26638-26645.
2. Norov, A. R. ., Haydarov, O. A. ., Saipnazarov, S. S. ., & Saidaxmedova, A. M. . (2022). Mechanisms to Ensure the Stability of the National Currency in the Republic of Uzbekistan. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 5, 393-400. Retrieved from <http://sjii.indexedresearch.org/index.php/sjii/article/view/157>
3. Sh. B. Formanova. (2021). Application of Pedagogical Technologies to the Topics of the Metals Department. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 5499–5509. Retrieved from <https://annalsofrscb.ro/index.php/journal/article/view/3118>





4. Shoh-Jakhon Khamdamov, Anvar Saidmakhmudovich Usmanov, Ogiloy Abdulazizova, Fakhridin Isaev, Nodirbek Kholbaev, Samariddin Makhmudov, and Sabina Kholbaeva. 2023. ECONOMETRIC MODELING OF CENTRAL BANK REFINANCING RATE IN UZBEKISTAN. In Proceedings of the 6th International Conference on Future Networks & Distributed Systems (ICFNDS '22). Association for Computing Machinery, New York, NY, USA, 253–257. <https://doi.org/10.1145/3584202.3584239>
5. Bobonazarovna, Formanova S., and Nabiye A. Abduhamidovich. "Development of Mathematical Literacy in Chemistry Lessons." *European Scholar Journal*, vol. 2, no. 3, 2021, pp. 97-99.
6. Norov, A. (2020). ИҚТИСОДИЁТ РИВОЖИДА ИНВЕСТИЦИЯ ВА ИНВЕСТИЦИОН КРЕДИТЛАШНИНГ МУҲИМ ОМИЛЛАРИ. *Архив научных исследований*, 1(23). Извлечено от <https://tsue.scienceweb.uz/index.php/archive/article/view/2611>
7. Norov, A. (2020). ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ ИНВЕСТИЦИОН КРЕДИТЛАШ ФАОЛЛИГИНИНГ КОРХОНАЛАР ЭКСПОРТ САЛОҲИЯТИНИ МУСТАҲКАМЛАШДАГИ РОЛИ. *Scientific Research Archive*, 1(26). Retrieved from <https://tsue.scienceweb.uz/index.php/archive/article/view/2607>